



MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQILGAN TAKLIFLAR

i.f.d., dots. Normurzayev Umid

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha inspeksiya

ORCID: 0009-0001-0130-8766

umid.normurzayev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО ДАЛЬНЕЙШЕМУ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

д.э.н., доц. Нормурзаев Умид

Инспекция крупных налогоплательщиков

Аннотация. В данной статье обобщается развитие налогового администрирования в стране за многие годы, освещается роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, рассмотрен зарубежный опыт, разработаны научно-практические выводы и предложения по ее применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

PROPOSALS DEVELOPED FOR FURTHER IMPROVING TAX ADMINISTRATION IN OUR COUNTRY

DSc, assoc. prof. Normurzayev Umid

Inspection of large taxpayers

Abstract. This article summarizes the development of tax administration in the country for many years, highlights the role and importance of interregional tax inspection in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the confidence of business circles. Some important reforms being implemented in the tax system of Uzbekistan are studied, foreign experience is studied, scientific and practical conclusions and proposals are developed on its application in our country.

Keywords: tax policy, tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

G'arb iqtisodchilari Fisher, Dornbush va Shmalenzi (2005)larning fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi.

Aronov va Kashin (2007) esa maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida qaraydi, ya'ni, ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini oshirish, soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

Mayburov (2007) soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish deb ta'kidlaydi.

Dementeva (2019) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi.

Karp (2001) soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi va soliq tizimini boshqarish tushunchalarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Sitnikova (2012)ning fikricha, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarni tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim hamda konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati xalqaro darajada e'tirof etilishi zarur.

Darkina (2019) yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasi hamda mamlakat ichida va chet elda firmalar bilan hamkorlik mavjudligini qayd etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon amaliyotida davlat budjeti va soliq to'lovchilarning manfaatlari nuqtai nazaridan to'g'ri va samarali soliq siyosati strategiyasi ishlab chiqish davlatning fiskal-budjet siyosatining samarasini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. "Xalqaro valyuta jamg'armasining hisob-kitoblari ko'ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliqlardan tushumlar YaIMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan

davlatlarda ushbu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko'ra, ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig'ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o'sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatmoqda". Shunga ko'ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Estoniya davlati: Dunyodagi eng soddada soliq modeli. Estoniya "Raqamli davlat" konsepsiyasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. "E-Tax" tizimi: Soliq deklaratsiyalarining 95% dan ortig'i soliq organlari tomonidan avtomatik to'ldiriladi. Fuqaro faqat ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Taqsimlanmagan foydani soliqdan ozod qilish: Korxonalar o'z foydasini biznesga qayta investitsiya qilsa, foyda solig'i to'lamaydi. Bu taklif soliq hisobotlarini soddalashtirish va korrupsiyani yo'qotishda eng samarali yo'l deb topilgan. X-Road tizimi: Davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi shunchalik kuchliki, soliq idorasi tadbirkordan boshqa idorada bor bo'lgan hujjatni qayta talab qilmaydi.

2. Janubiy Koreya davlati: Naqd pul aylanmasini jilovlash. Koreya tajribasi "yashirin iqtisodiyot"ni kamaytirish bo'yicha eng yaxshi namunalardan biri hisoblanadi. Cash Receipt System (Naqd pul cheklari tizimi): Iste'molchi naqd pulga mahsulot sotib olganda, telefon raqamini kiritadi va bu ma'lumot soliq bazasiga tushadi. Yil yakunida davlat ushbu fuqaroga sarflagan mablag'ining ma'lum qismini daromad solig'idan chegirma (tax deduction) sifatida qaytarib beradi. K-Tax (NTIS): Bu tizim sun'iy intellekt yordamida soliq to'lovchilarning xavf darajasini (risk-profiling) aniqlaydi. Agar tadbirkorning xarajatlari daromadidan asossiz oshib ketsa, tizim avtomatik ravishda signal beradi.

3. Buyuk Britaniya davlati: "Making Tax Digital" (MTD) dasturi. Britaniya soliq ma'murchiligini to'liq "qog'ozsiz" ko'rinishga o'tkazishni taklif qilgan. API integratsiyasi: Britaniyada tadbirkorlar soliq hisobotini soliq saytiga kirib to'ldirmaydi. Ular ishlatadigan buxgalteriya dasturlari (masalan, Xero yoki QuickBooks) API orqali soliq idorasi bazasiga ulanadi va ma'lumotlarni real vaqt rejimida yuboradi. Soliq maslahatchilari reytingi: Soliq idorasi professional maslahatchilar bilan ishlaydi. Agar maslahatchi o'z mijoziga soliqdan qochishni o'rgatsa, u nafaqat litsenziyadan mahrum bo'ladi, balki katta miqdorda jarimaga tortiladi.

4. Gruziya davlati: "Yagona oyna" va soddalik. Gruziya islohotlari ma'muriy to'siqlarni keskin kamaytirishga qaratilgan. Yagona g'azna hisobvarag'i: Soliq to'lovchi har bir soliq turi (QQS, daromad solig'i, mol-mulk) uchun alohida to'lov qilmaydi. Barcha soliqlar bitta hisob raqamiga bitta to'lov bilan o'tkaziladi, tizimning o'zi ularni turlar bo'yicha taqsimlaydi. Soliq qonunchiligidagi har qanday noaniqlik soliq to'lovchi foydasiga talqin qilinishi qonun bilan mustahkamlangan.

"O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq, soliq organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash hamda inson resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida quydagilarni taklif etamiz:

Soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish quydagilarni taklif etamiz:

1-yo'nalish. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va shaffoflikni ta'minlash hamda "Xizmatga yo'naltirilgan" tamoyil asosida yangicha yondashuvni joriy etish.

a) soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga bepul xizmat ko'rsatish, murojaatlarga o'z vaqtida javob berish, bironta savol javobsiz qolmaslik tamoyili asosida ishni tashkil qilish va soliq ma'murchiligida sun'iy intellektdan keng foydalanish va sun'iy intellekt bo'yicha "Davron" yordamchisini takomillashtirish;

Soliq qo'mitasida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatdigan markazlashgan tuzilmani tashkil etish va bu tuzilmani yuqori darajadagi bilimga ega bo'lgan malakali xodimlar (maslahatchilar) bilan shakllantirish.

b) soliq to'lovchilar va jamoatchilikning soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish va jahon standarti asosida soliq xizmati ko'rsatish.

Soliq qo'mitasi tomonidan doimiy ravishda va mustaqil tashkilot tomonidan yilda bir marta keng jamoatchilik o'rtasida so'rovnomalar o'tkazib, soliq organlariga bo'lgan ishonchga sal'biy ta'sir qiliuvchi faktorlarni aniqlash va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash.

v) Soliq qo'mitasi tomonidan soliq ma'murchiligida tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan Soliq qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta muhokama qilish va ularning natijalarini Ommaviy ahborot vositalarida e'lon qilib borish.

Jamoatchilik kengashi tarkibiga eng yuqori darajadagi soliq maslahatchilari hamda ekspertlardan iborat a'zolarini qayta ko'rib chiqish, soliq sohasidagi mavjud tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan Soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda ishni tashkil qilish.

g) soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlarni ko'lamini kengaytirish, ya'ni soliq to'lovchiga o'zining faol holatini mustaqil o'zgartirish imkoniyatini yaratish va soliq organlar tomonidan proaktiv xizmat ko'rsatish (soliq hisobotlarni avtomatik shakllantirish).

Soliq to'lovchining yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabineti orqali elektron tarzda mustaqil ravishda o'z faollik holatini o'zgartirish imkonini yaratish.

d) Soliq qo'mitasi tomonidan statistik tahliliy ma'lumotlar, mavjud xavf-xatarlar hamda soliq ma'murchiligida mavjud muammolar yuzasidan batafsil ahborotlarni har chorakda rasmiy veb saytda e'lon qilib borish orqali soliq organlari faoliyatini shaffofligini ta'minlash.

Soliq organlari faoliyatini shaffofligini ta'minlash maqsadida halqaro standartlarga moslashtirilgan holda byulitenni chop etib borish.

ye) soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ortiqcha to'langan soliqlarni o'z vaqtida qaytarishni ta'minlash maqsadida Yagona g'azna hisob raqami bo'lishini ta'minlash.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda Yagona g'azna hisob raqami tizimiga bosqichma-bosqich o'tish. Bunda, budjet tushumlariga sal'biy ta'sir ko'rsatmasdan soliq to'lovchilarga qo'layliklar yaratish.

j) Soliq qo'mitasi tomonidan yaratilgan va to'laqonli ishlashini ta'minlaydigan dasturiy ta'minotlarni soliq to'lovchilarga yetkazish va ularga tushuntirish ishlarini olib boruvchi xududiy soliq organlari tuzilmasida xodimni belgilash hamda uning lavozim vazifalarini belgilab qo'yish.

Soliq organlarining amaldagi tarkibiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, lavozim majburiyatlarni mazkur strategik ustuvor vazifalardan kelib chiqib, nizomlarni va lavozim yo'qirnomalarni qayta tasdiqlash.

2-yo'nalish. Soliq xatarlarini boshqarishda "Compliance risk management" (SRM) tizimini sifatini oshirish va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

a) soliq xatarlarini boshqarishda "Compliance risk management" (CRM) sohalar, hududlar hamda soliq turlari kesimida yuqori xatarlarni va budjetga potensial to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlash hamda ushbu tizimni takomillashtirib borish.

Davlat budjetiga potensial to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish va shu asosda hisoblanmay qolgan soliq summalarini aniqlash va undirish.

b) barcha soliq nazorat tadbirlari, shu jumladan jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshirishlar Soliq qo'mitasining Soliq xatarlarini boshqarish "Compliance risk management" (CRM) dasturi orqali amalga oshirish tartibini belgilash.

v) Soliq qo'mitasi tomonidan soliq nazorati tadbirlarini natijadorligini oshirish hamda havflarni pasaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash va yillik Soliq auditi milliy rejasini qabul qilish va ijrosini ta'minlash.

Soliq qo'mitasi tomonidan yillik Milliy audit rejasi ishlab chiqib, yil boshida tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, soliq auditi o'tkazish jarayonlarni raqamlashtirish hamda soliq organlari uchun ichki meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ichki-tashqi manba ma'lumotlaridan foydalangan holda tasdiqlangan tartib asosida samarali ishni tashkil etish.

g) qo'shilgan qiymat solig'ini avtomatik ravishda qoplab berishda barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan sub'ektlar ketma-ket uch marotaba qoplab berilgandan keyingi ariza soliq auditini o'tkazilgandan so'ng qoplash tartibini joriy etish. Reyting mezonlarini suiste'mol qilish hamda ballarni sun'iy shakllantirish omillarini bartaraf etish sub'ektlarga reyting toifalariga kiritishni alohida talablari belgilanadi.

d) kameral soliq tekshiruvi doirasida barcha xatti-harakatlar soliq to'lovchining shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi, shu jumladan soliq to'lovchidan hujjatlarni talab qilib olish, soliq to'lovchini chaqirtirish va tekshirish natijalari bo'yicha hujjatlarni soliq to'lovchiga taqdim etish.

ye) tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazishda muomalaga layoqatsiz shaxslar hamda yirik miqdorda soliq qarzi mavjud bo'lgan sub'ektlarning ta'sischi va rahbarlarga yangi korxona ochishga cheklov o'rnatish. Shuningdek, xaydovchi guvohnomasini bekor qilish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishni cheklash.

j) 2023-yilda PF-93-sonli Farmon bilan «20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis» dasturi doirasida shartnoma shartlarini bajarmagan sub'ektlarga taqdim etilgan sertifikatlarini bekor qilish va ularga berilgan soliq imtiyozlarni va preferensiyalarni bekor qilish.

z) yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlarini elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ularning shaxsiy kartochkalarni yuritish.

i) jismoniy shaxslar, dastlab davlat xizmatchilarining daromadi va xarajatini bosqichma-bosqich majburiy deklaratsiya qilish tartibi ishlab chiqish va amliyotga joriy etish.

y) qurilish sohasida soliq to'lamagan, takroran qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan qurilish tashkilotlarini davlat xaridlari va tenderlarda ishtirokini cheklash va yashirilgan xodim uchun moliyaviy jarimani minimal ish haqining 10 barobari qilib belgilash.

k) qurilish materiallarining bozor narxidan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash tartibini joriy etish.

l) soliq qarzini qarzdorning shaxsiy g'azna va maxsus hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish (qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno) va mol-mulkka qaratish va taqiq qo'yish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatlarini soliq organlariga berish.

m) qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, chakana savdo, ijra xizmatlari, yuqori daromali shaxslar qabi yo'nalishlarda soliq ma'murchiligini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli rejalar (CIP) ishlab chiqishni joriy etish.

n) soliq organlarida ro'yxatdan o'tmay faoliyat ko'rsatayotganlarni aniqlash tartibini yanada takomillashtirish.

o) avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish modulini samaradorligini baholash asosida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish va soliq ma'murchiligidagi xavflarni aniqlashni tizimini joriy qilish.

p) soliq to'lovchilar ma'lumotlaridagi tafovutlar va xatolarni aniqlashni yaxshilash asosida audit o'tkaziladigan nomzodlarni tanlashda foydalaniladigan algoritmlar va jarayonlarni takomillashtirish.

r) soliq to'lovchilar reestri ma'lumotlari yaxlitligini hamda to'g'riligini ta'minlash.

s) jismoniy shaxslarga hisoblangan mol-mulk va yer soliqlarini muddatidan oldin to'lagan jismoniy shaxslarga ushbu to'lovni amalga oshirish sanasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarining to'lov summasini kamaytirish amaliyotini joriy etish.

3-yo'nalish. Raqamlashtirish va innovatsion yechimlar orqali soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish hamda soliq to'lovchilarga xarajatlarni va byurokratik barerlarni kamaytirish.

a) soliq organlarining yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasida yirik hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish va takomillashtirish. Bunda, ma'lumotlar bazasi bosqichma-bosqich tranzaksiya va tahliliy (analitik) qismlarga ajratiladi.

Soliq organlari ma'lumotlar bazasi faoliyat yo'nalishlariga ko'ra bosqichma-bosqich OLTP (onlayn tranzaksiyalarni qayta ishlash) va OLAP (onlayn analitik ishlov berish) tizimlariga ajratiladi.

b) Soliq qo'mitasi tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni vazirlik va idoralardan elektron tarzda to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish orqali olish.

v) soliq to'lovchilarning tijorat bankdagi hisob raqamidagi aylanmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga integratsiya qilish.

g) Soliq qo'mitasi tarkibiy tuzilmalari funksiyalari va xizmatlarini raqamlashtirib borish.

d) Soliq organlari faoliyatini tezkorligini oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish maqsadida hududiy soliq boshqarmalari va inspeksiylarning axborot kommunikatsiya texnologiyalar bazasini yangilash va Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasidan keng foydalanish.

ye) soliq to'lovchilarga soliq organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni sun'iy intellekt elementlarni qo'llagan holda soliq to'lovchilarning vaqtini qisqartirish hamda soliq majburiyatini bajarishda sodda va qulay sharoit yaratish.

j) suniy intellekt texnologiyalarini joriy qilish (SRM, kameral va sayyor soliq tekshiruvi va auditi, QQS, soliq nizolarini sudgacha hal qilish va hakoza).

z) xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha soliq organlari bilan huquqni muhofaza qilish (Sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar, majburiy byuro) organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini raqamlashtirish.

4-yo'nalish. Soliq organlarida malakali kadrlarni ishga olish, yuqori lavozimga xodimlar zaxirasini shakllantirish va xodimlarni malakasini oshirish yuzasidan o'rta-uzoq muddatga mo'ljallangan qadrlar siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash.

a) soliq organlarida meritokratiya tamoyiliga asoslangan inson resurslaridan samarali foydalanish mexanizmini joriy etish. Bunda, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarishda "Inson resurslari salohiyatini oshirish" (HR Capacity Development) dasturi ishlab chiqiladi.

b) soliq tizimi xodimlari uchun uzluksiz va masofaviy bilim salohiyatni oshirish tizimini yaratish va ushbu tizim orqali sertifikatga ega bo'lgan xodimlarni yuqori lavozim uchun zaxira yaratish. Bunda, axborot texnologiyalardan keng foydalangan holda xodimlarning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash va kadrlar salohiyati rag'batlantiriladi (CRM, QQS, soliq nazorati va boshqalar).

v) soliq organlari xodimlarining bilim salohiyati va malakasini muntazam ravishda oshirish maqsadida Soliq qo'mitasida alohida "Xodimlarni rivojlantirish" tuzilmasini tashkil etish.

g) Soliq qo'mitasiga kadrlar malakasini oshirish uchun alohida bino ajratish hamda ilmiy va salohiyatli professor va o'qituvchilarni jalb qilish, ilg'or xorijiy davlatlar standartlari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda simulyatsion o'qitish platformalar orqali xodimlar malakasini oshirib borish.

d) soliq organlarida biznes jaraenlarini tizimlashtirish hamda ulardagi operatsion xavflarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish. Bunda, soliq organlarining xavflarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarga (masalan, ISO 22301 va 31000) muvofiq biznes jarayonlarda xavflarini aniqlash va baholash tizimi joriy etiladi.

ye) Soliq qo'mitasi, Yirik soliq to'lovchilar inspeksiyasi va hududiy soliq boshqarmalarga halqaro sertifikatga ega bo'lgan mutahassislarni rag'batlantirish maqsadida ushbu sertifikatlariga qilingan xarajatlarni qoplab berish va ularga har oyda qo'shimcha ustamalar berish tartibini joriy etish.

j) soliq organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida har yili sog'ligini tiklash uchun tibbiy ko'rikdan o'tish va sog'likni tiklash yuzasidan rag'batlantirish ishlarini joriy etish.

z) qo'shni va ilg'or xorijiy davlat soliq tizimini hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishida tajribalarni o'rganish va ma'lumot almashish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil qilish.

i) soliq xizmati organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni oldini olish va kelgusida bunday holatlar bo'lmasligi uchun amaldagi tartib qoidalarini inventarizatsiya qilib, Soliq qo'mitasining ichki tartibini ishlab chiqadi va shu asosda ishni qayta tashkillashtiradi.

y) soliq organlari xodimlarining moddiy rag'batlantirish, ish qo'nimsizligi ko'rsatkichlarini pasaytirish maqsadida xodimlarning uy-joy ipoteka uchun olgan kreditlarini qoplab berish.

k) oliy uquv yurtlarining 4 kurs talabalari o'rtasida tanlov o'tkazib, iqtidorli talabalarni to'lov kontraktlarini to'lash va ularni o'qishdan bo'sh vaqtlari soliq organlarida malakalari oshirish orqali soliq organlariga yangi avlod vakillarini ishga jalb qilish mexanizmini yaratish.

O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish bugungi kunda "Soliqchi — ko'makchi" tamoyili asosida transformatsiya qilinmoqda. Xorijiy tajribalarni tahlil qilgan holda, mamlakatimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Inson omilini minimallashtirish (To'liq raqamlashtirish)

Asosiy maqsad — soliq to'lovchi va soliq inspektori o'rtasidagi bevosita muloqotni yo'qotish. Avtomatik shakllanuvchi hisobotlar: Tadbirkorlarning onlayn nazorat-kassa mashinalari (NKM) va elektron hisob-fakturalari (EHF) ma'lumotlari asosida soliq hisobotlarini tizimning o'zi shakllantirishi. Agregat ma'lumotlar bazasi: Kadastr, bojxona, bank va boshqa davlat idoralari bazalarini soliq bazasi bilan to'liq integratsiya qilish orqali soliq to'lovchining ortiqcha hujjat taqdim etishini to'xtatish.

2. "Risk-analiz" tizimini takomillashtirish.

Soliq tekshiruvlarini o'tkazishda subyektiv yondashuvdan voz kechib, algoritmlarga tayanish. Sun'iy intellekt (AI) yordamida nazorat: Tizim shubhali operatsiyalarni (masalan, tovarning kirimi yo'q bo'lsa-da, chiqimi bo'lishi) avtomatik aniqlab, tadbirkorga "shaxsiy kabinet" orqali ogohlantirish yuborishi kerak. Intizomli soliq to'lovchilarga "Immunitet": Soliq uzilishi koeffitsienti past va soliqlarni o'z vaqtida to'laydigan korxonalar uchun kameral tekshiruvlarni butunlay bekor qilish.

3. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mexanizmlari. Bu borada nafaqat jazo, balki rag'batlantirish choralari muhim:

Keshbek tizimini kengaytirish: Faqat chakana savdo emas, balki xizmat ko'rsatish (shifoxonalar, o'quv markazlari, avtoservislar) sohasida ham chek talab qilish madaniyatini yanada kuchaytirish.

B2B va B2C segmentida shaffoflik: Naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish uchun karta orqali to'lov qiluvchi tadbirkorlarga soliq stavkalari bo'yicha differensial imtiyozlar berish.

4. Gorizontaal monitoringni joriy etish. Bu usul yirik soliq to'lovchilar uchun eng samarali yo'l hisoblanadi. Korxona o'z buxgalteriya bazasini soliq organlariga onlayn ko'rish imkoniyatini beradi. Buning evaziga soliq organi korxonani tekshirmaydi, balki operatsiyalar jarayonida xatolik bo'lsa, uni oldindan maslahat berib tuzatishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston soliq ma'murchiligini tubdan isloh qilish va xalqaro standartlarga olib chiqish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalishdan iborat kompleks taklif quyidagicha:

1. Soliq ma'murchiligini "Inson aralashuvi nol" darajasiga o'tkazish. Soliq tizimidagi asosiy korrupsion xavf va xatoliklarni kamaytirish uchun ma'muriy jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish lozim. Taklif: Soliq va moliya organlari, banklar, kadastr hamda notarius ma'lumotlar bazalarini yagona Big Data platformasiga to'liq integratsiya qilish. Natija: Soliq to'lovchi uchun deklaratsiyani tizimning o'zi to'ldiradi (Pre-filling), inson omili cheklanadi.

2. "Smart" nazorat va sun'iy intellektga asoslangan tahlil. Hamma tadbirkorni tekshirishdan voz kechib, faqat "shubhali" segmentlarga e'tibor qaratish. Taklif: Soliq uzilishi (tax gap) va shubhali operatsiyalarni aniqlashda AI (Sun'iy intellekt) algoritmlarini joriy etish. Natija: Tekshiruvlar 90% ga kamayadi, lekin samaradorlik 2 barobar oshadi. Tizim xatolikni aniqlagan zahoti tadbirkorni jazolamaydi, balki "ogohlantirish" yuborib, xatoni tuzatishga imkon beradi.

3. Gorizontaal monitoring va "Ishonchli hamkor" tizimi. Intizomli tadbirkorlarga soliq idorasini "servis markazi" sifatida taqdim etish. Taklif: Yirik va o'rta tadbirkorlar uchun gorizontaal monitoringni ixtiyoriy joriy etish. Bunda korxona o'z buxgalteriya bazasini soliq idorasiga onlayn ochib beradi. Natija: Bunday korxonalar soliq tekshiruvlaridan butunlay ozod qilinadi. Har qanday shubhali holat onlayn muloqot orqali, jarimalarsiz hal qilinadi.

4. Yashirin iqtisodiyotni "Iqtisodiy rag'bat" orqali qisqartirish. Ma'muriy majburlashdan ko'ra, tadbirkorga "oq" ishlashni foydaliroq qilish. Taklif: Naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirgan tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq stavkasini tabaqalashtirilgan holda kamaytirish (masalan, 12% dan 8% gacha). Natija: Ish haqini "konvertda" berishdan ko'ra, uni rasmiylashtirish iqtisodiy jihatdan arzonroqqa tushadi.

5. "Soliq apellyatsiyasi" tizimini mustaqilligini ta'minlash. Soliq to'lovchi va soliq organi o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmini isloh qilish. Taklif: Soliq nizolarini ko'rib chiquvchi apellyatsiya kengashini Davlat soliq qo'mitasi tarkibidan chiqarib, mustaqil organ (masalan, Adliya vazirligi yoki alohida tribunal) huzuriga o'tkazish. Natija: Nizolar xolis ko'rib chiqiladi va tadbirkorlarning soliq tizimiga bo'lgan ishonchi ortadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Soliq qo'mitasi (n.d.) Ma'lumotlar. Available at: www.soliq.uz

Аронов, А.В. ва Кашин, В.А. (2007) *Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Москва: Магистр*, с. 99–100.

Даркина, Ю.А. (2019) 'Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков', *Interactive Science*, 3(37).

Дементева, Н.М. (n.d.) *Налоговая политика государства. Available at: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689*

Жўраев, А. ва Сафаров, Ғ. (2005) *Солиқ назарияси. Ўқ. Қўл. Т.: Iqtisod-moliya*, 48-бет.

Камалнев Т.Ш. (2009) *Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.*

Карп, М.В. (2001) *Налоговый менеджмент. Учебник для вузов. М: Юнити-дана*, 39 с.

Майбуров, И.А. (ред.) (2007) *Налоги и налогообложение. Учебник для студентов вузов. Москва: Юнити-дана*, 655 с.

Нормурзаев, У.Х. (2022) *Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент.*

Ситникова О.В. (2012) *Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.*

Юнак А.А. (2009) *Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва, с. 12.*